

ISSN: 2545-0573

## TA'LIM MUASSASASI VA ISHLAB CHIQRISH HAMKORLIGI SALOHIYATLI KADR TAYYORLASHNING ASOSIY OMILIDIR

**Sh. Sh. Yakubova**

*Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent QarDU "Turizm va marketing" kafedrası*

**S. R. Egamberdiyeva**

*Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent QarMII "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası*

**F. Sh. Boyqobilov**

*QarMII Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi magistranti*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim jarayoni, oliy ta'lim muassasasi, o'quv jarayonining sifati, kadrlar tayyorlash, oliy ma'lumotli mutaxassislar.

### Annotatsiya

Maqola, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi, aholi bandligi va farovonligiga qaratilgan choralar sifatida, ta'lim tizimini, xususan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish masalasiga qaratilgan. Ilmiy maqolada ta'lim sifatini va kadrlar salohiyatini yaxshilash, uni qamrab olgan muammolar, bartaraf etish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan va zarur xulosa ishlab chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Bugungi keskin raqobatchilik va iqtisodiy globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar dolzarb muammoga aylanmoqda. Buning ustiga, mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etildi degan fikr-muloxazalar bilan chegaralanib qolmasdan, uning sifat jihatlarini yanada oshirish yo'lida to'xtab qolmasligimiz, bu boradagi ishlarimizni yanada yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimdir. Mazkur masalalar bugungi kunda oliy ma'lumotli kadrlarga nisbatan mehnat bozorida yuzaga kelgan vaziyat, xalqaro globallashuv jarayonlari kuchayishi natijasida innovatsion iqtisodiyotni barpo etish yo'lida bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar natijasida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim tizimidagi islohotlar asosiy zamirida innovatsion intellekt va o'z-o'zini halqaro raqobat mehnat bozorida ta'minlay oladigan yuqori salohiyatli bandlik masalasi yotadi.

Yurtimiz olimlaridan akademik S.S.G'ulomov, ta'lim tizimini isloh etish masalalarini qamrab olgan ko'plab ilmiy ishlar muallifidir. Xususan u, inson intellektini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. I.f.d professor M.M.Muhammedov, "Norasmiy bandlik: sabablari, oqibatlar va qisqartirish yo'llari" monografiyasida aholi bandligini muammolari sifatida ta'limni rivojlantirish masalalariga qaratadi.

B.B.Mardonovning (PHD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida xizmatlar sohasida aholi bandligini oshirish metodikasini ishlab chiqqan. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., M.N.Sunnatovlar o'zlarining darsligida kadrlar salohiyatiga katta e'tibor berib, yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir deb ta'kidlashgan.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq qadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3151-sonli qarori[2.], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori[1.] qabul qilindi. Mazkur qaror bilan oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to'lik yechimini topmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar urganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.**O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida berilgan xulosalarda oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlanmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish samarali tashkil etilmagan okibatida bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga, ishga joylashgandan keyin qaytadan o'z kasbini, mutaxassisligini o'rganayotganligi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi, ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi kabi kamchiliklar qayd etilgan.

Bundan tashkari, iqtisodiyot sohaslarining istiqbolda kadrlar tayyorlashga buyurtmalarini shakllantirish, bitiruvchilarga qo'yiladigan malakaviy talablarni ishlab chiqish, tarmoqqa zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki talabga javob bermaydi.

Oliy ta'lim dasturlarining o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga hamohangligini ta'minlash uchun ish beruvchilar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmayapti. Oliy ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohaslarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Prezident PQ-4611-sonli qarori [3.] qabul qilindi.

Qarorning qabul qilishdan maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadalashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Qarorga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar:

2021 yil 1 yanvardan boshlab, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi.

Moliya vazirligi MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi va unga qator funksiyalar yuklatildi:

- MHXS sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan, buxgalteriya hisobi va audit sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarini (akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari) hamda sohaga oid oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar (Sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assotsiatsiyasi (Association of Chartered Certified Accountants – ASSA) va boshqalar) bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish;
- rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi asosida o'quv jarayonining sifatini, imtihonlarni o'tkazish va natijalarini baholashning shaffofligini ta'minlovchi MHXS bo'yicha sertifikatlashning samarali tizimini joriy etish, shuningdek, MHXS sohasida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlarida o'qitish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashish;

“Har qaysi mamlakatda xoh mikrodarajada kichik korxonalar yoki yirik korporatsiyalar miqyosida bo'lsin yoxud makrodarajada davlat darajasida bo'lsin barcha ishlarning natijasi bevosita kadrlar salohiyati bilan bog'liq. Har qanday texnikaning, texnologiyaning, ilg'or g'oyalarning ixtirochisi, ijodkori bu turli sohalardagi kadrlardir[5.153b].

Mazkur qarorda, akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari orqali va sohaga oid OTM o'quv dasturlari asosida qadrlarni tayyorlash masalasi yuzasidan aniq topshiriqlar berilganligini ham ko'rish mumkin.

Qaror, albatta, yillar davomida shakllanib kelgan, buxgalterlar, auditorlarning hisob xizmatlarini yo'lga qo'yishdagi an'naviy yondashuvlardan to'liq voz kechishni talab qilmaydi. Aksincha, buxgalterlar, auditorlarning professional tajribalariga ko'proq tayanishga, erkin bo'lishga, ya'ni yagona qolipdan chiqishga ham undaydi. Shu bilan birga, biznes subyektlarining katta qismini tashkil etadigan kichik biznes subyektlarida buxgalteriya hisobining milliy standartlari amal etishini inkor qilmaydi. YA'ni ular to'liq xo'jalik operatsiyalarini, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan amaldagi normalar asosida yuritishni yo'lga qo'yadilar. Qarorda shuningdek, MHXSni joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatli organ etib belgilanishi bilan bir qatorda hisob siyosatining ayrim jihatlarini Respublika buxgalterlar va auditorlarining jamoat birlashmalari bilan birgalikda hal qilish zarurligi qayd etildi.

O'z navbatida, qaror ijrosida Oliy ta'lim vazirligi bilan ham hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim jihatlar belgilanadi. Tajriba-sinov tariqasida olingan OTMlarida «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» fanlari bo'yicha pedagog xodimlarini akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlarida MHXS bo'yicha tezashtirilgan tarzda o'qitish jadvalini tasdiqlashlari lozim.

Qarordagi jaddallikni buxgalteriya hisobi, audit, shuningdek, boshqaruv sohasi bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi keskin o'zgarishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, o'quv markazlari va OTMlarning amaldagi holati, ularning moddiy-texnik ta'minoti, o'qitishning intensivligini

taminlashdagi salohiyat imkoniyatlari sohadagi sig'imiylilikni yumshatishi bir muncha qiyin kechadi.

Shu jihatdan qat'iy belgilab qo'yildiki, 2021 yildan boshlab akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari litsenziyalanadigan faoliyat turlarini amalga oshirish bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga rioya qilish sharti bilan, tegishli litsenziya olmasdan MHXS va AXS bo'yicha o'qitish va malaka oshirish yuzasidan litsenziyalangan faoliyat turlarini amalga oshirish huquqiga egadirlar.

2021/2022 o'quv yilidan boshlab, barcha tajriba-sinov oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha fanlari faqat xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» yoki «AXS bo'yicha audit» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan o'qitilishi belgilab berildi.

Kadrlar tayyorlash borasida yana bir muhim jihatga to'g'ri yondashilgan. U ham bo'lsa xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan talabgorlarni oliy ta'lim muassasalari magistraturasining "Buxgalteriya hisobi" va "Audit" mutaxassisliklariga kirish imtihonlarini topshirmasdan to'lov-kontrakt asosida kirish huquqining berilganligidir. Bu kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta'minlaydi.

Professional, amaliyotchi buxgalterlar uchun eng muhim va og'riqli masalalardan bittasi biznes subyektlarini soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan masaladir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020 yil 1 oktabrga qadar soliq hisoboti shaklini qayta ko'rib chiqishi va uning MHXS bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotga moslashtirilgan shaklini ishlab chiqishi lozim qilib belgilangan edi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish yuzasidan tajriba-sinov oliy ta'lim muassasasi sifatida belgilangan Toshkent moliya institutida qaror ijrosi yuzasidan belgilangan muhim vazifalar va ularning natijadorligini ta'minlash borasida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"da ko'rsatib o'tilgan qator chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich ijrosi ta'minlanmoqda. Masalan, "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari", "Auditning xalqaro standartlari", "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari", "Byudjet hisobining xalqaro standartlari" kabi fanlar bo'yicha o'quv va ishchi o'quv dastur (sillabus)lari ishlab chiqilib, amaldagi o'quv rejalari tarkibiga kiritilib, o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Shunga monand ravishda institutda "Xalqaro buxgalteriya hisobi", "Auditning xalqaro standartlari", "Byudjet hisobining xalqaro standartlari", va "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" kabi fanlardan o'quv adabiyotlari yaratildi. Buxgalteriya hisobi, audit sohasi bo'yicha malakali qadrlar tayyorlashda to'liq xalqaro tajriba atroflicha o'zlashtirildi.

**Xulosa.** Xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish zarur. Buning uchun quyidagi vazifalarni ijrosining ustuvorligi ta'minlashi kerak :

Bugungi kunda xalqaro sertifikatga ega bo'lgan buxgalter auditorlarga bo'lgan talabning tobora ortib borishini e'tiborga olib buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlashda amaldagi o'quv rejalari tarkibiga "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari", "Auditning xalqaro standartlari", "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari", "Byudjet hisobining xalqaro standartlari" kabi fanlar kiritishi va ushbu fanlar bo'yicha amaliyotda xalqaro standartlar asosida hisobot topshirayotgan korxonalar uxgalteriyasiga sayyor darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi;

- istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish;
- iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini oliy ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash jarayoniga keng jalb etish, ularning ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorligini ta'minlash;
- kadrlar buyurtmachilari va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash

mazmuni, bitiruvchilarning bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni mujassamlashtiruvchi oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining malakaviy talablari, o'quv rejalari va dasturlarini soha ehtiyojidan kelib chiqib, yangidan ishlab chiqish xamda tasdiqlash;

- ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talablarini bevosita ta'lim mazmunini shakllantirish bilan shug'ullanadigan oliy ta'lim muassasalari profil kafedralarining professor-o'qituvchilari tomonidan tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish;
- rivojlangan xorijiy davlatlarning eng ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda o'quv rejalari va fan dasturlari, o'quv adabiyotlari, shu jumladan o'quv-metodik komplekslarning xalqaro standartlar asosida zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilish;
- ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish uchun komplekslar tarkibidagi vazirliklar va idoralarga qarashli tarmoqlar (sohalar)ni ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolariga bag'ishlangan mavzular bazasini shakllantirish hamda bu muammolarni oliy ta'lim muassasalari bilan xo'jalik shartnomalari tuzgan holda hal etishga ularning ilmiy salohiyatini, ayniqsa, yosh olimlar va tadqiqotchilarni tizimli tarzda jalb etish;
- iqtidorli yosh pedagoglar va doktorantlarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga tajriba orttirishga yuborish, ular uchun maxsus stipendiyalar ta'sis etish, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, doktorantlari va talabalarining xalqaro tajriba almashinuvlarini tashkil etish orqali ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish; o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadkikot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko'rish.

Albatta, har qanday islohotning to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishi kadrlar masalasiga, ularning sifatiga bog'liq. Shu bois, hukumatimiz va davlatimiz rahbarining qarorlarida salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xulosa sifatida aytganda, qarorning keng ko'lamli va sifatli ijrosida qadrlar masalasi asosiy masala hisoblanadi. Shunday ekan, biznes subyektlarining xalqaro biznes tillashuvida o'z nomidan axborotlar oqimini barcha uchun tushunarli hamda aniq shakllarda ochib berishga kodir bo'lgan buxgalteriya hisobi, audit sohasining professional mahoratli, shaxsiy tajribalar va intuitsiyalarda aldanmaydigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifamiz bo'lmog'i kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori.
2. 2."Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son Qarori.
3. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident qarori (PQ-4611-son, 24.02.2020 y.) qabul qilindi.
4. SH.M.Mirziyeyov «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak» Xalq so'zi .2017 yil 16 yanvar № 11(6705).
5. 4.Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 19.07.2019 yildagi 606-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining



qarori. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida  
NIZOM

6. S.R.Egamberdiyeva, F.Sh Boyqobilov. Buxgalteriya hisobi va auditning samaradorligini oshirishda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolari. Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat ko'rsatish va ta'lim xizmatlari sohalarini rivojlantirish muammolari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (III qism). 2022 yil 18-19 fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2022. – 252 bet.